


XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni (2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda) (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim

qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni



Hududlar kesimida

Qarshi sh	6069
Qarshi	2222
Kitob	2131
Koson	2079
Yakkabog'	2079
Qamashi	2013
Shahrisabz sh	1765
Chiroqchi	1609
Nishon	1596
Shahrisabz	1559
G'uzor	1503
Kasbi	1451
Dehqonobod	1238
Mirishkor	1187
Muborak	1030
Ko'kdala	1028


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 30 559 tani tashkil etdi, ulardan 25 659 tasi tadbirkorlik subyektlari. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,5 foiz, qishloq, o'rmonva baliqchilik xo'jaligi – 15,3 foiz, sanoat – 10,7 foiz, qurilish – 7,1 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Qarshi shahrida – 19,9 foiz, tumanlardan Qarshi – 7,3 foiz, Kitob – 7,0 foiz, Koson – 6,8 foiz va Yakkabog' da – 6,8 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

2024- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda



Hududlar kesimida

Qarshi sh	704
Qarshi	374
Koson	293
Yakkabogʻ	260
Kitob	254
Qamashi	231
Shahrisabz sh	217
Koʻkdala	208
Nishon	199
Gʻuzor	190
Shahrisabz	184
Kasbi	182
Chiroqchi	161
Mirishkor	154
Dehqonobod	138
Muborak	136


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2024- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 3 885 tani tashkil etdi. Ularni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaralganda savdo – 1 293 ta, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi – 812 ta, sanoat – 629 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 330 ta, qurilish – 152 ta, axborot va aloqa – 92 ta, tashish va saqlash – 90 ta, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish – 61 ta, boshqa turlar – 426 tani tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 25 659 tani tashkil etdi, ulardan 25 500 tasi kichik korxona va mikrofirmalar. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 18,1 foiz, sanoat – 12,7 foiz, qurilish – 8,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,3 foiz, tashish va saqlash – 3,1 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,5 foiz, axborot va aloqa – 1,5 foiz, boshqa turlari – 9,8 foiz

Hududlar kesimida


Qarshi sh	5 178
Qarshi	1 921
Kitob	1 788
Yakkabog'	1 747
Koson	1 730
Qamashi	1 707
Shahrisabz sh	1 518
Nishon	1 379

Chiroqchi	1 297
Shahrisabz	1 259
G'uzor	1 249
Kasbi	1 236
Dehqonobod	989
Mirishkor	986
Muborak	874
Ko'kdala	801


Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2024- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 3 750 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 3 741 ta;
- yirik korxonalar 9 tani tashkil etdi.


Hududlar kesimida

Qarshi sh	668	12,9 %
Qarshi	366	19,1 %
Koson	287	16,6 %
Yakkabog'	249	14,3 %
Kitob	248	13,9 %
Qamashi	224	13,1 %
Shahrisabz	211	13,9 %
Ko'kdala	200	25,0 %


Nishon	195	14,1 %
G'uzor	183	14,7 %
Kasbi	174	14,1 %
Shahrisabz sh	172	13,7 %
Chiroqchi	154	11,9 %
Mirishkor	152	15,4 %
Muborak	134	15,3 %
Dehqonobod	133	13,4 %

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumot

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Qarshi shahrida (20,1 foiz), Qarshi (7,5 foiz), Kitob (7,0 foiz), Yakkabog' (6,8 foiz) va Koson (6,7 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

Hududlar kesimida


Qarshi sh	5 118
Qarshi	1 909
Kitob	1 780
Yakkabog'	1 743
Koson	1 717
Qamashi	1 703
Shahrisabz sh	1 510
Nishon	1 377

Chiroqchi	1 290
Shahrisabz	1 250
G'uzor	1 240
Kasbi	1 232
Dehqonobod	986
Mirishkor	985
Muborak	861
Ko'kdala	799


Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumot

2024- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Hududlar kesimida

Qarshi sh	665	13,0 %
Qarshi	366	19,2 %
Koson	286	16,7 %
Kitob	248	13,9 %
Yakkabog'	248	14,2 %
Qamashi	224	13,2 %
Shahrisabz sh	210	13,9 %
Ko'kdala	200	25,0 %


Nishon	195	14,2 %
G'uzor	183	14,8 %
Kasbi	174	14,1 %
Shahrisabz	170	13,6 %
Chiroqchi	153	11,9 %
Mirishkor	152	15,4 %
Muborak	134	15,6 %
Dehqonobod	133	13,5 %

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyati bo'yicha ma'lumot


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida

Qamashi	645
Nishon	530
Kasbi	404
Mirishkor	369
Koson	338
Yakkabog'	335
Qarshi	315
Kitob	309
Shahrisabz	301
Dehqonobod	293
Ko'kdala	177
Muborak	168
Qarshi sh	153
G'uzor	152
Chiroqchi	140
Shahrisabz sh	45



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi. Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Qamashi (13,8 foiz), Nishon (11,3 foiz) va Kasbi (8,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.




Sanoat yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar toʻgʻrisida maʼlumotlar

2024- yil 1- oktabr holatiga koʻra, birlikda


Hududlar kesimida

Qarshi sh	594
Kitob	383
Yakkabogʻ	286
Shahrisabz sh	270
Qarshi	233
Shahrisabz	216
Gʻuzor	205
Chiroqchi	166
Koson	158
Qamashi	150
Kasbi	130
Nishon	107
Koʻkdala	101
Mirishkor	96
Muborak	90
Dehqonobod	73



Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega boʻlgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 10,7 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 89,9 foizini ishlab chiqarish sanoati, 8,0 foizini togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,3 foizini suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish va 0,8 foizini elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar


2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	624
Qarshi	232
Koson	204
Yakkabog'	125
Chiroqchi	119
Shahrisabz sh	106
Qamashi	98
Kasbi	98
Muborak	93
Shahrisabz	90
Kitob	87
G'uzor	72
Nishon	69
Dehqonobod	61
Mirishkor	58
Ko'kdala	41



Mamlakatimizda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki: - binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 58,0 foiz ulushni tashkil etdi; - ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 21,8 foiz ulushni tashkil etdi. - fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 20,2 foiz ulushni tashkil etdi;



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida

Qarshi sh	2 081
Qarshi	732
Koson	728
Yakkabog'	608
Chiroqchi	607
Shahrisabz sh	595
Kitob	568
G'uzor	533
Qamashi	498
Nishon	466
Kasbi	440
Dehqonobod	384
Shahrisabz	371
Muborak	346
Ko'kdala	342
Mirishkor	341



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 9 607 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:


- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 68,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 22,9 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,0 foiz ulushni tashkil etdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida

Qarshi sh	402
Kitob	169
Shahrisabz sh	149
Yakkabog'	139
Shahrisabz	138
Qarshi	102
Chiroqchi	83
Qamashi	81
G'uzor	77
Dehqonobod	55
Ko'kdala	52
Nishon	51
Koson	47
Muborak	41
Kasbi	30
Mirishkor	22




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024- yil 1- oktabr holatiga 1 638 taga yetib, ularning 1 626 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 6,9 foiz ulushini tashkil etdi;


restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,1 foiz ulushini tashkil etdi.



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida


Qarshi sh	148
Chiroqchi	42
Qarshi	31
G'uzor	26
Shahrisabz sh	23
Kitob	20
Koson	18
Kasbi	15
Yakkabog'	15
Qamashi	14
Ko'kdala	14
Nishon	9
Muborak	4
Dehqonobod	3
Mirishkor	3
Shahrisabz	3



2024-yil 1-oktabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 67,5 foizini;

Axborot xizmatlari va nashirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 29,1 foizini;


Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,4 foizni tashkil etdi.



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar toʻgʻrisida maʼlumotlar

Hududlar kesimida

Qarshi sh	237
Shahrisabz sh	81
Yakkabogʻ	74
Kitob	66
Koson	47
Qarshi	46
Qamashi	37
Shahrisabz	35
Chiroqchi	31
Gʻuzor	28
Nishon	22
Kasbi	22
Mirishkor	18
Muborak	18
Dehqonobod	11
Koʻkdala	6




Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 652 ta yoki 83,7 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlil shuni koʻrsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 96,0 foizi sogʻliqni saqlash yoʻnalishiga toʻgʻri keladi;

yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar soni 2,3 foizni tashkil etdi;


yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,7 foizini tashkil etdi.



Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida


Qarshi sh	271
Qarshi	71
Shahrisabz sh	67
Koson	56
Yakkabog'	49
Kitob	48
G'uzor	45
Shahrisabz	44
Mirishkor	31
Kasbi	31
Chiroqchi	21
Dehqonobod	13
Nishon	13
Ko'kdala	13
Qamashi	12
Muborak	12




2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,6 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 80,1 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 16,2 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 3,7 foizni tashkil etgan.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:


- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

Yillar kesimida soni


Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Savdo



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar


Yetakchi o'rinni 34 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,5 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 16,7 foiz), Turkiya (ulushi 10,9 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 4,6 foiz) va Qozog'iston (ulushi 3,3 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Qarshi sh	42
Muborak	14
G'uzor	13
Nishon	12
Koson	9
Qarshi	8
Kitob	8
Dehqonobod	7

Mirishkor	7
Chiroqchi	7
Kasbi	6
Yakkabog'	6
Qamashi	4
Shahrisabz	4
Ko'kdala	2
Shahrisabz sh	2

Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 88 tasi qo'shma korxonalar, 63 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalar soni to'g'risida ma'lumot

qo'shma korxonalar		xorijiy korxonalar
8	G'uzor	5
5	Dehqonobod	2
3	Qamashi	1
4	Qarshi	4
5	Koson	4
5	Kitob	3
4	Mirishkor	3
5	Muborak	9
6	Nishon	6
1	Kasbi	5
-	Ko'kdala	2
5	Chiroqchi	2
3	Shahrisabz	1
4	Yakkabog'	2
29	Qarshi sh.	13
1	Shahrisabz sh.	1

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.